

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10809673>

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI

Zakirova Sayora Alimovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi

Yunusova Maxmuda Almasovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti talabasi

elektron pochta: maxisstat@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik davridagi iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlilini ifodalaydi. Tadqiqotda yalpi ichki mahsulot, uning o‘shish sur‘atlari, tarmoq tarkibining o‘zgarishi va boshqalar kabi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiyotda ro‘y bergan asosiy tendentsiya va o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatgan omillar, xususan, siyosiy islohotlar, kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari, investitsiya faoliyati, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va boshqa jihatlar tahlil qilinadi. Ish rasmiy statistik ma‘lumotlarga, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan. O‘rganish O‘zbekiston iqtisodiyotining bugungi holati to‘g‘risida xulosalar chiqarish, muammoli yo‘nalishlarni aniqlash va mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni yaxshilashning potentsial yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: yalpi ichki mahsulot, yalpi qo‘shilgan qiymat, yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘atlari, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, tadbirkorlik faoliyati, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar.

ABSTRACT

This study represents a statistical analysis of the economic development of the Republic of Uzbekistan during the period of independence. The study analyzes the main macroeconomic indicators, such as gross domestic product, its growth rates, changes in the structure of the industry, etc. The main trends and changes that occurred in the economy after the independence of Uzbekistan are considered. Factors that have influenced the country's economic development, in particular, political reforms, measures to support small business and private business entities, investment activities, legislative changes and other aspects are analyzed. The work is based on official statistics as well as scientific research. The study makes it possible to draw conclusions about the current state of the economy of Uzbekistan, identify problematic areas, and identify potential directions for improving the economic situation in the country.

Key words: *gross domestic product, gross value added, growth rate of gross domestic product, gross domestic product per capita, business activity, investments in fixed capital.*

KIRISH


Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Iqtisodiyotning yanada rivojlanishi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan muhim yo'nalishlardan biridir¹. Ushbu strategiyaga ko'ra, mamlakatimiz barqaror iqtisodiy o'sishi orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash asosiy tamoyillardan hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi deyarli 4 barobar oshdi va dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida farmoni

888,3 trln. so‘mni (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o‘rtacha yillik kursi bo‘yicha – 80 384,0 mln. AQSH dollari) tashkil etdi.

1991-2022- yillardagi YAIMning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati esa 4,4 % ga yetdi.



1-rasm. 1991-2022- yillarda YAIM o‘shish sur‘atlarining o‘zgarish dinamikasi, % da¹

Ma‘lumot uchun: Yalpi ichki mahsulot iqtisodiy rezident birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o‘lchanadigan Milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

Mustaqillikka erishgandan so‘ng, islohotlarning birinchi bosqichida tadbirkorlar sinfini hamda raqobat muhitini yaratish, bozor infrastrukturasi yaxshilash va bozor munosabatlarining shakllanishiga poydevor yaratish maqsadida zaruriy normativ-huquqiy baza shakllantirildi². 2000- yil 25- mayda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-69-II-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning izchillashishi natijasida ushbu qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi hamda 2012- yil 2- may kuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-son O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Qonuni tasdiqlandi³. Qonunning asosiy


¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>

² Begimova D.K., Особенности развития экономики Республики Узбекистан // Символ науки, №5, 2019

³ O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/acts/2006789>

vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo‘lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ma'lumot uchun: Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.



2-rasm. 2003-2022- yillarda yangi tashkil qilingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz), birlikda¹

Ushbu bosqichda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan ma‘muriy buyruqbozlik oqibatlarini bartaraf etish bilan birga, yangi iqtisodiy mulk munosabatlari vujudga keldi va mulkdor tadbirkorlar sinfi izchil rivojlana boshladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan holda xususiylashtirish va monopoliyadan chiqarish jarayonlari


¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>

bilan birga olib borildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida 2003-2022- yillar davomida jami 827 390 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etildi¹.

2002- yilda kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi 31,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib bu ko'rsatkich 51,8 % gacha o'sdi.

Islohotlarning navbatdagi – ikkinchi bosqichi moliya sektorini barqarorlashtirish va mustahkamlashdan iborat bo'ldi. 2000-2022- yillarda korxonalar va tashkilotlar tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi 1 376,3 trln.so'mni tashkil etdi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 11,2 % ga yetdi². Natijada iqtisodiyotning tarkibida yangi tarmoqlar paydo bo'ldi.

Qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi va investitsiyalar hajmining ko'payishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishini, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o'zgarishlarini ham ta'minladi. Tarkibiy islohotlar siyosatining izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti diversifikatsiya qilindi. Mintaqaviy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni tahlil qilish, eng avvalo, hudud iqtisodiyotining holati va uning iqtisodiy o'sishini belgilovchi omillarni aniqlash imkonini beradi³.



3-rasm.1991 va 2022- yillarda YAIM tarmoq tarkibining o'zgarishi, yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan % da⁴

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>


³ Асадов Х., Структурные сдвиги в отраслях экономики регионов // Экономическое обозрение, №7 (247)/2020

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>

Tarmoqlar tarkibi yalpi mahsulot, milliy daromad va asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishlab chiqarish sohalari va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida taqsimlashni nazarda tutadi. Binobarin, tarmoqlar tarkibi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, birinchi navbatda, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni o'rganishda asosiy o'rinni egallaydi.

2016-2022- yillarda iqtisodiyot tarmoqlari yuqori qo'shilgan qiymat beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida sezilarli darajada yaxshilandi. YAIM ijobiy o'sishining saqlanib qolinishida iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlari ta'sir ko'rsatdi:

Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik (2016-2022- yillar) o'sish sur'atlari 3,0 % ni tashkil etdi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilda YAIM hajmining 25,1 % i mazkur tarmoq hissasiga to'g'ri keldi (2016- yilda ushbu ko'rsatkich 32,1 % ni tashkil etgan). Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining bosqichma-bosqich pasayishi tendensiyasi davom etib kelmoqda (4-rasm).



4-rasm. 2016-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi, yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan % da¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>

2016-2022- yillar oralig'ida sanoat tarmog'i bo'yicha o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 5,9 % ga teng bo'ldi va YAIM tarkibidagi ulushi 2016- yildagi 19,5 % dan 2022- yilga kelib 26,7 % gacha o'sdi. Asosiy o'sish yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2016- yildagi 14,7 % dan 2022- yilda 20,6 % gacha oshgan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatiga to'g'ri keladi. YAIMda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining ulushi 2,5 % dan 4,1 % ga, sanoatning boshqa tarmoqlarining ulushi esa 1,9 % dan 2,0 % ga oshdi.

Mamlakatimizda turar-joy majmualari qurish, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish va kapital rekonstruksiya qilish, shuningdek, sanoatning bazaviy tarmoqlari korxonalarini modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar samarasida qurilish ishlari hajmi, 2016- yilga nisbatan 85,5 % ga (2016-2022- yillarda o'rtacha yillik o'sish 10,5 % ni tashkil etadi), yalpi ichki mahsulot tarkibida qurilishning ulushi 5,6 % dan 6,7 % ga oshdi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini oshirishning eng muhim omilidir. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini isloh qilish bo'yicha izchil chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida ushbu soha iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi ulushi 2016- yildagi 42,8 % dan 2022- yilda 41,5 % gacha kamayganiga qaramay, uning qo'shilgan qiymati 2016- yilga nisbatan 43,5 % ga oshdi (2016-2022- yillar uchun o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,2 % ni tashkil etdi)¹.

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari xom ashyoga qaramlikni kamaytirishga olib keluvchi diversifikatsiyalash, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tarmoqlarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>

rivojlantirish hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar xom-ashyoga yo'naltirilganlikni bartaraf etishga, ishlab chiqarish-texnologik bazani shakllantirishga va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni yumshatishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, <https://lex.uz;>
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi*, www.stat.uz;
3. *M.M.Ikramov, "Тенденции развития экономики Республики Узбекистан" // Экономические науки;*
4. *D.K.Begimova, "Особенности развития экономики Республики Узбекистан" // Символ науки, №5, 2019;*
5. *X.Asadov, "Структурные сдвиги в отраслях экономики регионов" // Экономическое обозрение, №7 (247), 2020.*